

1Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE ROLE OF THE PHENOMENON OF LACUNARITY IN THE SYSTEM OF CONTRASTIVE DISCIPLINES****Saybulbot Muhammadaliyevich Azamov***Namangan State Institute of Foreign Languages**Associate Professor (PhD), Department of English Language and Literature**Science ID: FNM03260090**Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Lacunarity; lacuna; contrastive linguistics; translation studies; linguocultural studies; cognitive linguistics; intercultural communication; linguistic gap; conceptualization; cultural concept.

Received: 20.08.26**Accepted:** 21.08.26**Published:** 22.08.26

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the lacunarity phenomenon within the system of contrastive disciplines, detailing its linguistic and cognitive types alongside translation compensation methods. Lacunarity is established as an integrative category reflecting cross-linguistic asymmetry and national-cultural specifics.

CHOG‘ISHTIRMA FANLAR TIZIMIDA LAKUNARLIK FENOMENINING O‘RNI**Saybulbot Muhammadaliyevich A‘zamov***Namangan davlat chet tillari instituti**Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti (PhD)**Ilmiy identifikatsiya raqami: FNM03260090**Namangan, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Lakunarlik; lakuna; chog‘ishtirma tilshunoslik; tarjimashunoslik; lingvomadaniyatshunoslik; kognitiv tilshunoslik; madaniyatlararo kommunikatsiya; lingvistik bo‘shliq; konseptuallashtirish; madaniy konsept.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lakunarlik fenomenining chog‘ishtirma fanlar tizimidagi o‘rni, lingvistik va kognitiv turlari hamda tarjimadagi kompensatsiya vositalari atroflicha tahlil qilingan. Lakunarlik tillararo asimmetriya va milliy-madaniy xususiyatlarni ochib beruvchi integrativ kategoriya sifatida asoslangan.

МЕСТО ФЕНОМЕНА ЛАКУНАРНОСТИ В СИСТЕМЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН**Сайбулбот Мухаммадалиевич Аъзамов***Наманганский государственный институт иностранных языков*

доцент (PhD) кафедры английского языка и литературы
 Научный идентификационный номер: FNM03260090
 Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Лакунарность; лакуна; сопоставительная лингвистика; переводоведение; лингвокультурология; когнитивная лингвистика; межкультурная коммуникация; языковой пробел; концептуализация; культурный концепт.	Аннотация: В статье проведен всесторонний анализ феномена лакунарности в системе сопоставительных дисциплин, его лингвистических и когнитивных типов, а также способов компенсации при переводе. Лакунарность обоснована как интегративная категория, отражающая межъязыковую асимметрию и национально-культурную специфику.
--	---

Kirish. Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda turli tizimli tillarni chog‘ishtirma-tipologik planda tadqiq etish tobora ustuvor ilmiy yo‘nalishga aylanmoqda. Xalqaro integratsiya, madaniyatlararo aloqalarning intensivlashuvi, tarjima amaliyotining kengayishi hamda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining takomillashuvi bir tilda mavjud bo‘lgan lisoniy birlik, tushuncha yoki kognitiv modelning boshqa tilda qay darajada namoyon bo‘lishini aniqlash zaruratini taqozo etmoqda. Tillarni qiyoslash jarayonida ularning faqat universal va o‘xshash jihatlari emas, balki bir tilda mavjud bo‘lib, ikkinchi tilda bevosita shakliy-semantik muqobilga ega bo‘lmagan asimmetrik bo‘shliqlar ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday lisoniy hamda madaniy bo‘shliqlar ilmiy muloqotda lakunalar deb yuritiladi.

“Lakuna” atamasi lotincha lacuna (chuqurlik, bo‘shliq, yetishmayotgan o‘rin) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, lingvistika va unga turdosh fanlarda muayyan til, tafakkur yoki madaniyat tizimida mavjud bo‘lgan birlik, grammatik kategoriya, nutqiy etiket va madaniy konseptning boshqa tizimda bevosita hamda to‘liq ifoda vositasiga ega emasligini anglatadi. Lakunarlik esa mazkur bo‘shliqlarning mavjudligi, yuzaga kelish omillari hamda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini qamrab oluvchi umumiy gnoseologik hodisadir. Masalan, o‘zbek tilidagi mahalla, hashar, kelin salom, andisha kabi etnografik va ma‘naviy-ruhiy birliklarning ingliz tilida mazmunan to‘liq mos keluvchi bitta leksik muqobili mavjud emas. O‘z navbatida, ingliz tilidagi sibling (aka-uka, opa-singilni umumlashtiruvchi tushuncha), privacy (shaxsiy hudud va daxlsizlik), commuter (har kuni shaharlararo qatnab ishlaydigan kishi), fortnight (ikki hafta) kabi leksemalar o‘zbek tilida so‘z birikmasi yoki tavsifiy iboralar orqali beriladi. Mazkur holat tillarning boy yoki kambag‘alligidan emas, balki har bir xalqning borliqni o‘z tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzumi hamda milliy-madaniy qadriyatlari asosida kategoriyalashtirishidan dalolat beradi .

Lakunarlik hodisasi chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnopsixolingvistika hamda madaniyatlararo

kommunikatsiya kabi fanlarning kesishgan nuqtasida o'rganiladi. Shu sababli ushbu fenomen faqat lug'aviy birliklarning yetishmasligi bilan cheklanmay, til, tafakkur, madaniyat va muloqot munosabatlarini ifodalovchi ko'p sathli va integrativ kategoriya sifatida tahlil etilishi lozim. Ushbu tadqiqotning maqsadi lakunarlik fenomenining chog'ishtirma fanlar tizimidagi metodologik hamda amaliy o'rnini belgilash, uning lingvistik va kognitiv turlarini tasniflash hamda tarjima jarayoni va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyatini atroflicha yoritishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini lakunarlik, chog'ishtirma-tipologik tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda lingvokulturologiyaga oid fundamental ilmiy manbalar tashkil etadi. Amaliy tahlil materiali sifatida o'zbek, ingliz va rus tillaridagi lug'aviy manbalar, badiiy va publitsistik matnlardan olingan lakunar birliklar hamda madaniy-ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksik-semantik katamlar tanlab olindi. Lakuna va lakunarlik fenomeni zamonaviy chog'ishtirma tilshunoslikning tillararo nomuvofiqliklarni aniqlash, ularning lingvistik hamda ekstralingvistik tabiatini izohlashga xizmat qiluvchi muhim nazariy tushunchalaridan biridir. Mazkur hodisaning ilmiy talqini dastlab ikki til yoki madaniyatni qiyoslash jarayonida bir tilda mavjud bo'lgan, biroq boshqa tilda unga to'liq mos keluvchi birlikning mavjud emasligi bilan bog'liq holda shakllangan bo'lsa-da, keyingi tadqiqotlarda lakunarlik tushunchasining mazmun doirasi sezilarli darajada kengaydi. Xususan, lakuna bugungi kunda faqat lug'aviy bo'shliq sifatida emas, balki muayyan xalqning borliqni konseptuallashtirish, kategoriyalash va madaniy tajribani ifodalash usulidagi o'ziga xoslikni namoyon qiluvchi murakkab lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida talqin qilinmoqda.

Lakuna fenomenining nazariy asoslarini ishlab chiqishda R.Y. Shor, G.V. Kolshanskiy, Yu.S. Stepanov, V.G. Gak, Y.A. Sorokin, I.Yu. Markovina, V.L. Muravyov, D.B. Gudkov, G.D. Tomaxin kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida tillararo nomuvofiqliklar turli mezonlar asosida tavsiflanib, bir tilning leksik, grammatik yoki semantik tizimida mavjud bo'lgan hodisaning boshqa tilda bevosita ekvivalentga ega emasligi masalasi o'rganilgan. Mazkur yondashuvlar lakunarlikni ikki yoki undan ortiq til tizimini chog'ishtirish natijasida aniqlanadigan hodisa sifatida qarash imkonini berdi. Shu jihatdan lakuna chog'ishtirma tahlilning shunchaki natijaviy kategoriyasi emas, balki tillarning o'ziga xosligini belgilovchi muhim lingvistik ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Lakuna nazariyasining rivojida J. Dubois va fransuz tilshunoslik maktabining qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda til tizimlaridagi nomuvofiqliklar, xususan, bir tildagi birlik yoki kategoriya boshqa tilda alohida nomlanmagan holatlar orqali izohlanadi. Biroq zamonaviy tadqiqotlarda lakunarlikni faqat "bir tilda bor, ikkinchisida yo'q" tamoyili asosida belgilash yetarli emasligi ta'kidlanadi. Chunki muayyan tushunchaning boshqa tilda alohida leksik birlik bilan ifodalanmasligi uning mutlaq mavjud emasligini anglatmaydi. U perifrazalar, frazeologik birliklar,

grammatik konstruksiyalar, kontekstual vositalar yoki boshqa semantik birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy chog‘ishtirma tadqiqotlarda lakuna tushunchasi formal nomuvofiqlik, semantik nomuvofiqlik, funksional nomuvofiqlik va madaniy nomuvofiqlik kabi jihatlar bilan kompleks ravishda o‘rganilishi lozim.

Lakunalarining lingvistik tabiatini izohlashda V.L. Muravyovning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim tillararo lakunalarni muayyan til birliklarining boshqa tilda ekvivalentining yo‘qligi bilan bog‘laydi va ularni chog‘ishtirma tilshunoslikning muhim obyekti sifatida ko‘radi. Bunday yondashuv lakunalarni tizimli ravishda aniqlash va tasniflash imkonini beradi. Shu bilan birga, lakunaning yuzaga kelishi faqat til tizimlarining strukturaviy farqlari bilan emas, balki xalqlarning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, an‘analari va milliy-madaniy qadriyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligi keyingi tadqiqotlarda tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda.

Lakunarlikning lingvomadaniy mohiyatini yoritishda I.Yu. Markovina va Y.A. Sorokinning ishlari muhim nazariy asoslardan biridir. Ularning qarashlarida lakuna turli madaniyat vakillarining kommunikativ faoliyatida yuzaga keladigan, bir madaniyat uchun tushunarli va tabiiy bo‘lgan, biroq boshqa madaniyat vakili uchun izoh yoki qo‘shimcha talqinni talab qiladigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv lakunani sof lingvistik hodisa doirasidan chiqarib, uni madaniyatlararo kommunikatsiya muammosi sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Demak, lakunarlik nafaqat “til tizimidagi bo‘shliq”, balki madaniy tajriba va uning tilda konseptualizatsiya qilinishidagi farqni ham aks ettiradi.

G.D. Tomaxin tadqiqotlarida lakunarlik, realiya va lingvomadaniy birliklar o‘rtasidagi munosabatlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, muayyan xalqning tarixiy, geografik, siyosiy va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq birliklarning boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emasligi tarjima jarayonida alohida muammo tug‘diradi. Shu nuqtayi nazardan, lakunarlikni o‘rganish tarjimashunoslik bilan ham uzviy bog‘lanadi. Biroq lakuna va realiya tushunchalarini aynanlashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas: realiya muayyan milliy-madaniy obyekt yoki hodisani ifodalovchi birlik bo‘lsa, lakuna kengroq hodisa bo‘lib, uning tarkibiga leksik birliklar bilan bir qatorda grammatik, semantik, pragmatik va konseptual nomuvofiqliklar ham kirishi mumkin.

Chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan lakunarlikning alohida ahamiyati shundaki, u ikki tilning o‘xshash jihatlaridan ko‘ra, ularning nomuvofiqliklarini tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Chog‘ishtirish jarayonida bir tilning boshqa tilga nisbatan o‘ziga xosligi aynan ekvivalentlik mavjud bo‘lmagan yoki to‘liq moslik kuzatilmaydigan birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli lakunalar tillararo farqlarning “salbiy” ko‘rinishi emas, balki har bir tilning

milliy-madaniy va kognitiv o'ziga xosligini ochib beruvchi diagnostik birlik sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur hodisaning kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi ham alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. J. Lakoff, R. Langacker, G. Fauconnier, J. Taylor kabi kognitiv tilshunoslik vakillarining konseptualizatsiya, kategoriyalash va freym nazariyasiga oid qarashlari lakunarlikning chuqur mexanizmlarini tushuntirish uchun metodologik imkoniyat yaratadi. Turli xalqlar bir xil obyektiv borliqni turlicha kategoriyalashi mumkin. Natijada bir tilda mustaqil nomga ega bo'lgan konseptual mazmun boshqa tilda alohida nominativ birlik shaklida namoyon bo'lmashligi mumkin. Bunday holatda lakuna til tizimining oddiy "yetishmovchiligi" emas, balki milliy tafakkur va tajribaning tilda turlicha strukturaviylashtirilishi natijasi sifatida yuzaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, lakunarlikni kognitiv hodisa sifatida tadqiq etish uning yuzaga kelish sabablarini yanada chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Masalan, muayyan xalq hayotida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabat, marosim, qarindoshlik turi, milliy taom, kiyim-kechak, an'ana yoki axloqiy qadriyat uchun maxsus nominativ birlikning mavjudligi ushbu tushunchaning mazkur madaniyat vakillari ongida alohida konseptual ahamiyat kasb etganidan dalolat berishi mumkin. Boshqa madaniyatda esa ayni hodisa alohida konsept sifatida ajratilmasligi yoki boshqa umumiy kategoriya tarkibida ifodalanishi ehtimoldan xoli emas. Demak, lakunarlik til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni o'rganishda ham muhim empirik material vazifasini bajaradi.

Etnolingvistik yondashuv lakunarlikning shakllanishida xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarzi, geografik muhiti va ijtimoiy munosabatlari muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Etnolingvistika doirasida til birliklari xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu bois bir tilda mavjud bo'lgan, ikkinchi tilda esa bevosita ekvivalentga ega bo'lmagan birliklar o'sha xalqning tarixiy-madaniy tajribasini qayta tiklash uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qarindoshlik terminlari, milliy marosimlar, diniy-axloqiy tushunchalar, urf-odatlar va an'anaviy ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar bu jihatdan katta ilmiy qiymatga ega.

Lakunarlikning pragmatik jihat ham zamonaviy tadqiqotlarda tobora muhimlashib bormoqda. Bir xil kommunikativ vaziyat turli tillarda turlicha ifodalanishi mumkin. Muayyan murojaat shakli, nutqiy formula, hurmat yoki masofa ifodalovchi birlikning boshqa tilda to'liq pragmatik ekvivalentga ega bo'lmashligi ham lakunarlikning bir ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin. Bunda formal ekvivalent mavjud bo'lsa ham, uning kommunikativ qiymati, qo'llanish chastotasi, ijtimoiy maqomi yoki emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi boshqa tildagi birlikdan farq qiladi. Shuning uchun lakunarlikni faqat "ekvivalentning mavjud yoki mavjud emasligi" asosida emas, balki ekvivalentlik darajasi va kommunikativ funktsiyaning mosligi asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tarjimashunoslikda lakunarlik muammosi, avvalo, tillararo ekvivalentlikning chegaralarini aniqlash bilan bogʻliq. E. Nida, P. Newmark, M. Baker, L. Venuti kabi olimlarning ekvivalentlik, madaniy birliklar va tarjima strategiyalariga oid qarashlari lakunalarni tarjima qilish mexanizmlarini tushuntirish uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Lakunali birliklarni boshqa tilga oʻgirishda transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima, funksional analog, izohlash yoki kontekstual kompensatsiya kabi strategiyalardan foydalanish mumkin. Biroq qaysi strategiyaning tanlanishi lakunaning tabiatiga, uning matndagi funksiyasiga va qabul qiluvchi auditoriyaning madaniy kompetensiyasiga bogʻliq.

Lakunarlik fenomenining yana bir muhim jihati uning mutlaq va nisbiy xarakterga ega boʻlishidir. Bir qarashda muayyan til birligining boshqa tilda ekvivalenti mavjud emasligi “mutlaq lakuna”ni anglatishi mumkin. Biroq chuqurroq tahlil jarayonida ushbu mazmunning boshqa leksik, frazeologik, sintaktik yoki diskursiv vositalar orqali ifodalanishi aniqlanishi mumkin. Shu sababli zamonaviy chogʻishtirma tadqiqotlarda lakunani aniqlashda faqat lugʻatlarni mexanik tarzda taqqoslash yetarli emas. Korpus materiallari, kontekstual tahlil, semantik komponentlar tahlili, tarjima matnlarini qiyoslash hamda lingvomadaniy izohlash usullaridan kompleks foydalanish talab etiladi.

Oʻzbek tilshunosligida ham lakuna va lakunarlik masalalari chogʻishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va frazeologiya doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, oʻzbek tilining ingliz, rus, nemis va boshqa tillar bilan qiyosiy oʻrganilishi jarayonida milliy-madaniy birliklarning bevosita ekvivalentga ega emasligi, frazeologik birliklarning semantik va obrazli nomuvofiqligi, milliy realiyalar hamda nutqiy-etnografik birliklarning tarjimadagi muammolari lakunarlik hodisasining turli koʻrinishlarini aniqlash imkonini bermoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning sezilarli qismida lakuna muammosi muayyan til materiali yoki tarjima masalasi doirasida oʻrganilgan boʻlib, uning chogʻishtirma fanlar tizimidagi kompleks metodologik maqomi yetarlicha umumlashtirilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, lakunarlik fenomeni bir necha ilmiy yoʻnalishlarning kesishish nuqtasida joylashgan. Chogʻishtirma tilshunoslik lakunalarni tillararo nomuvofiqlik sifatida aniqlasa, lingvomadaniyatshunoslik ularning milliy-madaniy sabablarini ochib beradi; kognitiv tilshunoslik lakunalarning konseptualizatsiya va kategoriyalash bilan bogʻliq mexanizmlarini izohlaydi; etnolingvistika ularni xalqning tarixiy-madaniy tajribasi bilan bogʻlaydi; tarjimashunoslik esa lakunali birliklarni boshqa tilga qayta kodlash strategiyalarini ishlab chiqadi; pragmalingvistika esa ularning real kommunikativ vaziyatdagi funksional xususiyatlarini ochib beradi. Shu jihatdan lakunarlikni bitta fan doirasida chegaralab qoʻyish uning mohiyatini toʻliq ochib bera olmaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida lakunarlikni bir til, madaniyat yoki kognitiv tizimda mavjud bo'lgan mazmun, kategoriya, kommunikativ-pragmatik birlik yoki madaniy tajribaning boshqa til va madaniyatda to'liq formal, semantik, funksional yoki konseptual muqobilga ega bo'lmashligi natijasida yuzaga keladigan tillararo va madaniyatlararo nomuvofiqlik hodisasi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuv lakunani faqat "til tizimidagi bo'shliq" sifatida emas, balki ikki til va madaniyatni chog'ishtirish jarayonida aniqlanadigan, mazkur tizimlarning o'ziga xosligini namoyon etuvchi murakkab ko'p sathli fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, lakunarlikning chog'ishtirma fanlar tizimidagi o'rnini uning fanlararo integratsiyani ta'minlovchi nazariy-metodologik kategoriya ekanligi bilan belgilanadi. Lakuna orqali nafaqat tillarning strukturaviy farqlari, balki xalqlarning borliqni idrok etishi, uni konseptual jihatdan tashkil qilishi, ijtimoiy tajribani kategoriyalashi va madaniy qadriyatlarni verbalizatsiya qilish usullari ham aniqlanadi. Shu sababli lakunarlik fenomenini kompleks tadqiq etish tillararo farqlarni tavsiflash bilangina cheklanmay, til, tafakkur, madaniyat va kommunikatsiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur holat lakunarlikni zamonaviy chog'ishtirma tilshunoslikning istiqbolli va dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida baholashga asos beradi.

Tadqiqot jarayonida chog'ishtirma-tipologik, komponent tahlil, semantik-kontekstual tahlil, tasniflash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Chog'ishtirma-tipologik metod yordamida turli tizimli tillardagi birliklarning shakliy va mazmuniy mosligi baholandi. Komponent tahlil usuli esa tarjima muqobili sifatida berilayotgan birliklarning semanti qismlarini (sema va semema) qiyoslash imkonini berdi. Kontekstual va pragmatik tahlil vositasida lakunar birliklarning nutqiy vaziyatdagi kommunikativ vazifalari va madaniy ma'nolari yoritildi. Lakunalarni aniqlashda qiyoslashning obyektiv asosi – tertium comparationis (qiyoslash uchinchi mezoni) tamoyiliga tayanildi. Bunda birliklar shunchaki lug'aviy shakli bo'yicha emas, balki ularning denotativ ma'nosi, konnotativ bo'yoqlari, stilistik hamda madaniy-pragmatik xususiyatlari majmui bo'yicha qiyoslandi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, lakunarlik til tizimida tasodifan yuzaga kelgan kamchilik yoki nuqson emas, balki tilning borliqni o'ziga xos tarzda nomlashi va kognitiv aks ettirishi natijasida shakllanadigan qonuniy hodisadir. Bir xalq uchun moddiy va ma'naviy jihatdan dolzarb bo'lgan hodisa, marosim, ijtimoiy munosabat yoki axloqiy me'yor uning tilida alohida so'z bilan verballashadi. Boshqa xalq madaniyatida ushbu hodisa mavjud bo'lmasa yoki kommunikativ jihatdan alohida ajratilmasa, u muayyan til tizimida leksik bo'shliq – lakunani hosil qiladi.

Lakunalar nisbiy xarakterga ega. Muayyan birlik barcha tillarga nisbatan lakuna bo'la olmaydi, u faqat tanlangan fon tiliga (target language) qiyoslaganda lakunar birlik sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi mahalla so'zi ingliz tiliga nisbatan lakunadir. Ingliz tilidagi neighbourhood yoki community so'zlari uning geografik va hududiy ma'nosini berishi mumkin, biroq mahallaning o'zini o'zi boshqarish, jamoaviy hamjihatlik, qo'shnichilik andishasi va ma'naviy-tarbiyaviy mas'uliyat bilan bog'liq semantik komponentlarini to'liq aks ettirmaydi.

Lakunalarni ilmiy mezonlar asosida tasniflash chog'ishtirma fanlar uchun alohida ahamiyatga ega. Namoyon bo'lish muhiti va doirasiga ko'ra lakunalar ichki til, tillararo va madaniyatlararo turlarga ajratiladi. Ichki til lakunalari bir til tizimining paradigmatic qatorida to'ldirilmagan bo'shliqlardir. Tillararo lakunalar bir tildagi birlikning ikkinchi tilda lug'aviy ekvivalenti mavjud emasligida ko'rinadi. Madaniyatlararo lakunalar esa bir xalqning turmush tarzi, urf-odati, qadriyati yoki ijtimoiy tajribasining boshqa madaniyat vakillari ongida shakllanmaganligi bilan bog'liq.

Til sathlari bo'yicha lakunalarning quyidagi korrelyativ turlari farqlanadi: leksik, grammatik, semantik, frazeologik hamda pragmatik lakunalar. Leksik lakuna bir tildagi leksemaning boshqa tilda bir so'zli muqobili yo'qligini anglatadi (masalan, inglizcha sibling – o'zbekcha aka-uka va opa-singil). Grammatik lakunalarda muayyan tildagi grammatik kategoriya ikkinchi tilda shakliy ko'rsatkichga ega bo'lmaydi. Ingliz tilidagi artikl kategoriyasi o'zbek tilida alohida grammatik vosita bilan emas, balki ko'rsatish olmoshlari, so'z tartibi yoki kontekstual vositalar orqali beriladi.

Semantik lakunada tashqi jihatdan ekvivalent ko'ringan so'zlarning ma'no hajmi va konnotatsiyasi mos kelmaydi. Masalan, inglizcha privacy so'zi kontekstga qarab shaxsiy daxlsizlik, yolg'iz qolish huquqi, shaxsiy hayot yoki sir saklash ma'nolarida keladi. Pragmatik lakunalar esa nutqiy etiket va muloqot strategiyalaridagi farqlarda namoyon bo'ladi. O'zbek muloqot etiketida yoshi katta kishiga hurmat ko'plik shakli (Siz, keldilar) va maxsus murojaat birliklari orqali ifodalansa, ingliz tilida bu mazmun nutq ohangi, bilvosita pragmatik konstruksiyalar va stilistik vositalar yordamida beriladi.

Frazeologik lakunalar turg'un birikma, idioma hamda maqollarning boshqa tilda obrazli-semantik muqobili yo'qligida ko'rinadi. Kelib chiqish omillariga ko'ra lakunalar motivlangan va motivlanmagan guruhlariga ajraladi. Motivlangan lakunalar muayyan moddiy predmet, marosim yoki ijtimoiy institutning boshqa xalq hayotida mavjud emasligi sababli yuzaga keladi (hashar, sumalak sayli, kelin salom). Motivlanmagan lakunalarda esa hodisa har ikkala xalq tajribasida mavjud, lekin tillardan birida u alohida leksema bilan nomlanmagan. Ingliz tilidagi fortnight (ikki hafta) tushunchasi o'zbek tilida mavjud bo'lsa-da, alohida lug'aviy birlik bilan ifodalanmaydi.

Lakunarlik hodisasi chog'ishtirma fanlarning har birida o'ziga xos nazariy-amaliy vazifani bajaradi. Chog'ishtirma tilshunoslikda u til tizimlari o'rtasidagi struktur, semantik va funksional asimmetriyani ochib beradi. Tillarni faqat mavjud birliklar bo'yicha qiyoslash yetarli emas; bir tilda mavjud bo'lib, ikkinchi tilda ifodalanmagan kategoriyalarni aniqlash tilning o'ziga xos tipologik qiyofasini ko'rsatadi.

Tarjimashunoslikda lakunalar tarjima qiyinchiliklarining va ekvivalentlik muammosining bosh sababchisi hisoblanadi. Tarjimon lakunar birlikni berishda quyidagi kompensatsion usullardan foydalanadi: transliteratsiya va transkripsiya (mahalla, sumalak), tasviriy tarjima (hashar – voluntary community work), funksional analog, kalkalash, kontekstual izoh hamda kompensatsiya. Usulni tanlash matn janri, kommunikativ maqsad va o'quvchining fon bilimlariga bog'liqdir.

Lingvomadaniyatshunoslikda lakuna milliy dunyoqarash va qadriyatlar tizimini tahlil qilish kalitidir. O'zbek tilidagi andisha so'zi shunchaki kamtarlik emas, balki o'zini tiyish, ijtimoiy me'yorga rioya qilish va noqulaylik hosil qilmaslik kabi kompleks ma'nolarni anglatadi. Kognitiv tilshunoslikda esa lakunarlik tushuncha va uning verballashuvi o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi. Sibling tushunchasi o'zbek xalqi tafakkurida mavjud, biroq u alohida umumlashtiruvchi leksema sifatida shakllanmagan.

Madaniyatlararo kommunikatsiyada lakunalarni bilmaslik madaniy shok va tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Bir madaniyatda hurmat belgisi bo'lgan bilvosita rad javobi boshqa madaniyat vakili tomonidan noaniqlik sifatida baholanishi ehtimol. Leksikografiya esa lakunar birliklarga lug'atlarda alohida madaniy va pragmatik izohlar berilishi lozim.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, lakunarlik bir til yoki madaniyatdagi lisoniy birlik, grammatik kategoriya, konsept va kommunikativ modelning boshqa til hamda madaniyatda bevosita shakliy-semantik muqobilga ega emasligini ifodalovchi ko'p sathli hodisadir. U faqat leksik bo'shliqlar bilan cheklanib qolmay, grammatik, semantik, pragmatik, kognitiv va madaniy nomutanosibliklarni ham qamrab oladi.

Lakunalar nisbiy tabiatga ega bo'lib, ular faqat ikki yoki undan ortiq tillarni qiyoslash jarayonida namoyon bo'ladi. Bir tilda alohida nom bilan verballashgan tushuncha ikkinchi tilda tavsifiy iboralar, kontekstual va grammatik vositalar orqali kompensatsiyalanishi mumkin.

Lakunarlik chog'ishtirma tilshunoslikda til tizimlari asimmetriyasini, tarjimashunoslikda bevosita ekvivalentga ega bo'lmagan birliklarni ifodalash muammosini, lingvomadaniyatshunoslikda milliy qadriyatlar va dunyo manzarasini, kognitiv tilshunoslikda esa konseptlarning shakllanish xususiyatlarini yoritib beradi.

Lakunalarni tarjimada berishda transliteratsiya, tasviriy tarjima, funksional analog, kalkalash va izohlash kabi mos lingvistik usullardan foydalaniladi. Tegishli usul matnning kommunikativ vazifasi hamda o'quvchining madaniy kompetensiyasi asosida tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, lakunarlik fenomeni chog'ishtirma fanlar tizimini birlashtiruvchi integrativ va fanlararo kategoriya hisoblanadi. Uni tadqiq etish tillararo farqlarni aniqlash bilan birga, turli xalqlarning madaniyati, tafakkur tarzi va muloqot madaniyatini chuqur anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anokhina T. The Linguistic Lacunicon: Cognitive Mapping in Schemes and Terms // Journal of Education Culture and Society. – 2013. – № 1. – P. 166–174.
2. ¹ Shor R.Y. Язык и общество // Язык и общество / под ред. В.А. Звегинцева. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1962. – С. 45–58; Колшанский Г.В. Контекстная семантика. – М.: Наука, 1980. – 150 с.; Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – 990 с.; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: На материале французского и русского языков. – М.: Международные отношения, 1977. – 264 с.; Сорокин Ю.А., Маркова И.Ю. Национально-культурная специфика речевого поведения // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 9–40; Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст: Введение в лакунологию. – М.: Наука, 1985. – 143 с.; Муравьев В.Л. Лексические лакуны в русском языке и способы их заполнения. – Владимир: Изд-во Владимирского государственного педагогического института, 1975. – 95 с.; Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. – 288 с.; Томахин Г.Д. Реалии-американизмы: Пособие по страноведению. – М.: Высшая школа, 1988. – 239 с.
3. Dubois J., Giacomo M., Guespin L., Marcellesi C., Marcellesi J.-B., Mével J.-P. Dictionnaire de linguistique. – Paris: Larousse, 1973. – 516 p.; Dubois J. Dictionnaire de linguistique et des sciences du langage. – Paris: Larousse, 1994. – 514 p.; Vinay J.-P., Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l'anglais: Méthode de traduction. – Paris: Didier, 1958. – 331 p.; Lado R. Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. – 141 p.; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: На материале французского и русского языков. – М.: Международные отношения, 1977. – 264 с.; Муравьев В.Л. Лексические лакуны в русском языке и способы их заполнения. – Владимир: Изд-во Владимирского государственного педагогического института, 1975. – 95 с.; Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст: Введение в лакунологию. – М.: Наука, 1985. – 143 с.

4. Муравьев В.Л. Лексические лакуны в русском языке и способы их заполнения: учеб. пособие. – Владимир: Изд-во Владимирского государственного педагогического института, 1975. – 95 с.; Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст: Введение в лакунологию. – М.: Наука, 1985. – 143 с.; Сорокин Ю.А. Этническая психоллингвистика. – М.: Наука, 1988. – 192 с.; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: На материале французского и русского языков. – М.: Международные отношения, 1977. – 264 с.; Томахин Г.Д. Реалии-американизмы: Пособие по страноведению. – М.: Высшая школа, 1988. – 239 с.; Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. – 288 с.

5. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.; Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.; Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 190 p.; Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 464 p.; Taylor J.R. Linguistic Categorization. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 319 p.

6. Nida E.A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – 331 p.; Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J. Brill, 1969. – 218 p.; Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.; Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2011. – 368 p.; Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2008. – 319 p.; Venuti L. The Scandals of Translation: Towards an Ethics of Difference. – London; New York: Routledge, 1998. – 210 p.

7. Khasanov, E. (2025). Analysis of lacunas in English and Uzbek. In International Conference on Social Sciences & Humanities (Vol. 1, No. 2, pp. 84-86).

8. Markovina I.Yu., Sorokin Yu.A. Kultura i tekst. Vvedeniye v lakunologiyu. – Moskva: GEOTAR-Media, 2010. – 144 s.

9. Ахмад А.О., Балуян С.Р. Сопоставительный анализ лексических межъязыковых лакун русского и английского языков // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2017. – № 3–2. – С. 59–62.

10. Ахмад А.О., Балуян С.Р. Сопоставительный анализ лексических межъязыковых лакун русского и английского языков // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2017. – № 3–2. – С. 59–62.

11. Цыбова И.А. О лакунарности, потенциальности и неологии // Перевод и сопоставительная лингвистика. – 2015. – Вып. 11. – С. 117–122.

12. Муравьев В.Л. Лексические лакуны в русском языке и способы их заполнения: учеб. пособие. – Владимир: Изд-во Владимирского государственного педагогического института, 1975. – 95 с.; Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Культура и текст: Введение в лакунологию. – М.: Наука, 1985. – 143 с.; Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. – 288 с.

13. Florin S. Realia in translation // Translation/History/Culture: A Sourcebook. – London; New York: Routledge, 1997. – P. 122–128; Aixelá J.F. Culture-specific items in translation // Translation, Power, Subversion. – Clevedon: Multilingual Matters, 1996. – P. 52–78.